| 5.20. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijro organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yigʻilishini chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijro organiga Kuzatuv kengashining majlisi oʻtkaziladigan kuni topshiriladi. | 5.20. Протокол заседания Наблюдательного совета Общества передается исполнительному органу Общества для исполнения в день его подписания. В случае принятия Наблюдательным советом решения о созыве общего собрания акционеров, информация о данном решении передается исполнительному органу Общества в день проведения заседания Наблюдательного совета. |
| 5.21. Agar Kuzatuv kengashi jamiyat oldida aniq vazifalarni aniq belgilab qo'ygan bo'lsa, bunday vazifalar vaqt va mas'ul shaxslarni ko'rsatgan holda Kuzatuv kengashi topshiriqlari reestriga kiritilishi kerak (5-ilova). | 5.21. Если Наблюдательный совет четко определил конкретные задачи перед Обществом, такие задачи должны быть внесены в Реестр поручений Наблюдательного совета (Приложение №5) с указанием сроков и ответственных лиц. |

| VI. Kuzatuv kengashi majlisining kvorumi va qaror qabul qilish. | VI. Кворум заседания Наблюдательного совета и принятие решений. |
|---|---|
| 6.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini oʻtkazish uchun kvorum Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a’zolarning yetmish besh foizidan kam boʻlmasligi kerak. | 6.1. Кворум для проведения заседания наблюдательного совета общества должен составлять не менее семидесяти пяти процентов членов, избранных в наблюдательный совет общества. |
| 6.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zolarining soni Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam boʻlgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yigʻilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a’zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yigʻilishini chaqirish toʻgʻrisida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat ijro organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir. | 6.2. При численности членов Наблюдательного совета общества менее семидесяти пяти процентов от суммы, предусмотренной уставом общества, общество обязано созвать внеочередное общее собрание акционеров для избрания нового состава наблюдательного совета. Остальные члены наблюдательного совета вправе принять решение о созыве такого внеочередного Общего собрания акционеров, а также назначить временно исполняющего обязанности руководителя исполнительного органа общества в случае досрочного прекращения его полномочий. |
| 6.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir boʻlganlarning koʻpchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu nizomning 2.2.21-bandida koʻrsatilgan qarorlar bundan mustasno. | 6.3. На заседании Общественного наблюдательного совета решения принимаются большинством голосов присутствующих на заседании, за исключением решений, указанных в пункте 2.2.21 настоящего Положения. |
| 6.4.Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a’zosi bitta ovozga ega boʻladi. | 6.4. Каждый член Наблюдательного совета имеет один голос при решении вопросов на заседании Общественного наблюдательного совета. |
| 6.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zolarining ovozlari teng boʻlgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. | 6.5. Голос председателя наблюдательного совета общества является решающим при принятии Наблюдательным советом решения при равенстве голосов членов Наблюдательного совета общества. |
| 6.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a’zosi oʻz ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a’zosiga berishiga yoʻl qoʻyilmaydi. | 6.6. Члену Наблюдательного совета не разрешается передавать свой голос другому члену Наблюдательного совета. |
| 6.7. Kvorum mavjudligini va kun tartibidagi masalalarga ovoz berish natijalarini aniqlashda, oddiy koʻpchilik ovoz bilan qabul qilinadigan kun tartibidagi masalalar boʻyicha majlisda qatnashmayotgan kuzatuv kengashi a’zosining yozma fikri agar bir vaqtning oʻzida quyidagi shartlarga rioya qilingan boʻlsa, inobatga olinishi mumkin:<br>6.7.1. Kuzatuv kengashi majlis boshlanguniga qadar masala boʻyicha yozma fikrni olgan boʻlsalar;<br>6.7.2. taklif etilgan qaror loyihasi boʻyicha “yoqlab” yoki “qarshi” ovoz berganligini yoxud qaror qabul qilinishidan “betaraf” boʻlganligini yozma fikrida | 6.7. При определении наличия кворума и результатов голосования по вопросам повестки дня письменное мнение члена наблюдательного совета, не присутствующего на заседании по вопросам повестки дня, принимаемое простым большинством голосов, может быть учтено при одновременном соблюдении следующих условий:<br>6.7.1. Если наблюдательный совет получил письменное мнение по этому вопросу до начала заседания;<br>6.7.2. член наблюдательного совета четко определил свою точку зрения по вопросу, указав в письменном заключении, что он |

| | |
|---|---|
| ko'rsatgan holda masala bo'yicha kuzatuv kengashi a'zosi o'z nuqtayi nazarini aniq belgilagan bo'lsa. | проголосовал “за” или "против" предложенного проекта решения или "воздержался" от принятия решения. |
| 6.8. Taklif etilgan qaror loyihasi bo'yicha tuzatishlar va izohlarni o'z ichiga olgan yozma fikr kuzatuv kengashi raisi qaroriga ko'ra inobatga olinishi mumkin. Bunday holatda Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasiga tegishli yozuvlar kiritiladi va taklif etilgan tuzatishlar va izohlar bo'yicha kuzatuv kengashi raisining qarorini inobatga olgan holda, kun tartibidagi masala bo'yicha qaror qabul qilinadi. | 6.8. Письменное мнение, содержащее поправки и замечания к предложенному проекту решения, может быть принято во внимание по решению председателя наблюдательного совета. В этом случае в протокол заседания наблюдательного совета вносятся соответствующие записи и принимается решение по вопросу повестки дня с учетом решения председателя наблюдательного совета о предложенных поправках и замечаниях. |
| 6.9. Yozma fikrlar kvorum mavjudligini va har bir masalaga ovoz berish natijalarini aniqlashda alohida hisobga olinadi va majlis bayonnomasida aks ettiriladi. | 6.9. Письменные мнения учитываются отдельно при определении наличия кворума и результатов голосования по каждому вопросу и отражаются в протоколе собрания. |
| 6.10. Kvorum mavjudligini va masalalarga ovoz berish natijalarini aniqlashda ularni hal qilish uchun malakali ko'pchilik ovoz yoki yakdillik talab qilinsa, yozma fikrlarni hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi. | 6.10. При определении наличия кворума и результатов голосования по вопросам, для решения которых требуется квалифицированное большинство или единогласие, учет письменных мнений не допускается. |
| 6.11. Quyidagi masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi qarorlari barcha saylangan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:<br>6.11.1. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga Jamiyatni qayta tashkil etish yoki tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi masalalarni kiritish;<br>6.11.2. sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) qabul qilinadigan qarorlar;<br>6.11.3. korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish;<br>6.11.4. O'zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish to'g'risidagi qarorlar. | 6.11. Решения наблюдательного совета по следующим вопросам принимаются всеми избранными членами наблюдательного совета единогласно:<br>6.11.1. Включение в повестку дня общего собрания акционеров вопросов о реорганизации или ликвидации Общества, назначении ликвидационной комиссии;<br>6.11.2. Решения, принимаемые путем заочного голосования (опросным путем);<br>6.11.3. Выпуск корпоративных облигаций, в том числе облигаций, конвертируемых в акции;<br>6.11.4. Решения о совершении сделок в случаях, предусмотренных главами 8 и 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров». |
| 6.12. Quyidagi masalalar bo'yicha kuzatuv kengashi qarorlari ovoz berishda qatnashayotgan kuzatuv kengashi a'zolarining to'rtdan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:<br>6.12.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirilishini rad etish; | 6.12. Решения наблюдательного совета по следующим вопросам принимаются большинством в три четверти голосов (квалифицированным большинством) членов наблюдательного совета, принимающих участие в голосовании:<br>6.12.1. Отказ в созыве внеочередного общего собрания акционеров;<br>6.12.2. Отказ во включении вопроса в повестку дня общего собрания |

| | |
|---|---|
| 6.12.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masalani yoki nomzodni Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish. | акционеров или кандидата в список кандидатур для голосования по выборам в наблюдательный совет и ревизионную комиссию Общества. |
| **VII. Kuzatuv kengashining qo'mitalari** | **VII. Комитеты Наблюдательного совета** |
| 7.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi asosli va samarali qarorlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida, shu jumladan, nizoli holatlarni aniqlash va hal qilish uchun tegishli masalalar bo'yicha doimiy va vaqtincha faoliyat yurituvchi qo'mitalar (ishchi guruhlar) tuzishga haqli. | 7.1. В целях обеспечения принятия обоснованных и эффективных решений, в том числе для выявления и разрешения конфликтных ситуаций, наблюдательный совет Общества вправе создавать постоянно или временно действующие комитеты (рабочие группы) по соответствующим вопросам. |
| 7.2. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi huzuridagi 4 ta qo'mita faoliyat ko'rsatadi:<br>- Audit qo'mitasi;<br>- Tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi;<br>- Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi;<br>- Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi. | 7.2. Для рассмотрения наиболее важных вопросов и подготовки рекомендаций при Наблюдательном совете функционируют 4 комитета:<br>- Комитет по аудиту;<br>- Комитет по назначениям и вознаграждениям;<br>- Комитет по стратегии и инвестициям;<br>- Комитет по противодействию коррупции и этике. |
| 7.3. Barcha qo'mitalarning faoliyati qo'mita tarkibi, vakolatlari, ish tartibi hamda a'zolarining huquq va majburiyatlari kabi qoidalarni o'z ichiga olgan ichki hujjatlar bilan tartibga solinadi. | 7.3. Деятельность всех комитетов регулируется внутренними документами, которые содержат такие правила, как состав комитета, полномочия, порядок работы, а также права и обязанности их членов. |
| 7.4. Kuzatuv kengashi qo'mitalari ma'lum bir qo'mitada ishlash uchun zarur bo'lgan professional bilimlarga ega bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat. Har bir qo'mitaning miqdoriy va shaxsiy tarkibi Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. | 7.4. Комитеты наблюдательного совета формируются из членов наблюдательного совета, обладающих профессиональными знаниями, необходимыми для работы в конкретном комитете. Количественный и персональный состав каждого комитета определяется наблюдательным советом. |
| 7.5. Qo'mita majlisida uning a'zolarining kamida 2/3 qismi ishtirok etsa, majlis vakolatli hisoblanadi, bunda qo'mita raisi ishtirok etishi shart. Majlisda qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Har bir qo'mita a'zosi bir ovozga ega. | 7.5. Заседание комитета считается правомочным, если в нем принимают участие не менее 2/3 его членов, при этом участие председателя комитета обязательно. Решения на заседании принимаются простым большинством голосов. Каждый член комитета обладает одним голосом. |
| 7.6. Qo'mitaning qarori majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu bayonnoma qo'mita kotibi tomonidan yuritiladi va u ovoz berishda qatnashgan a'zolari tomonidan imzolanadi. | 7.6. Решение комитета оформляется протоколом заседания. Данный протокол ведется секретарем комитета и подписывается членами, принимавшими участие в голосовании. |

| VIII. Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari | VIII. Права и обязанности членов наблюдательного совета. |
|---|---|
| 8.1. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:<br>8.1.1. Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so'zga chiqish;<br>8.1.2. Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra muayyan davrda Jamiyatning faoliyati natijalari, uni rivojlantirish rejalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;<br>8.1.3. qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlar. | 8.1. Член наблюдательного совета имеет следующие права:<br>8.1.1. Лично участвовать в заседании наблюдательного совета, выступать по обсуждаемому на заседании вопросу в пределах времени, отведенного регламентом;<br>8.1.2. Получать на основании решения наблюдательного совета полную и достоверную информацию о результатах деятельности Общества за определенный период и планах его развития;<br>8.1.3. Иные права, предусмотренные законодательством и уставом общества. |
| 8.2. Kuzatuv Kengashining Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasidagi funktsiyalar Kuzatuv kengashi raisi tomonidan Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi uchun alohida taqsimlanadi. | 8.2. Функции между членами Наблюдательного совета распределяются председателем Наблюдательного совета индивидуально для каждого члена Наблюдательного совета. |
| 8.3. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab vijdonan va oqilona ish tutishi, ularga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni va xizmat hamda tijorat sirini tashkil etuvchi Jamiyat hujjatlarini oshkora qilmasliklari lozim. | 8.3. Члены наблюдательного совета при осуществлении своих прав и исполнении своих обязанностей должны действовать добросовестно и разумно в интересах Общества, а также не разглашать известные им конфиденциальные сведения и документы Общества, составляющие служебную и коммерческую тайну. |
| 8.4. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mavqeini va Jamiyat faoliyati haqida olingan ma'lumotlarni shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga, shuningdek ushbu ma'lumotlarni boshqa shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarida foydalanishiga yo'l qo'ymasliklari lozim. | 8.4. Члены наблюдательного совета не должны допускать использования своего положения и информации о деятельности Общества в личных интересах, а также использования этой информации в личных интересах другими лицами. |
| 8.5. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi majlisida shaxsan qatnashishlari shart. Agar majlisda qatnashish imkoniyati mavjud bo'lmasa Kuzatuv kengashi a'zosi sabablarini ko'rsatgan holda Kuzatuv kengashini bu haqda xabardor qiladi. Bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur Nizomga muvofiq kun tartibidagi masalalar yuzasidan yozma fikrini yuborishga haqli. | 8.5. Члены наблюдательного совета обязаны участвовать в заседании наблюдательного совета лично. В случае невозможности участия в заседании член наблюдательного совета уведомляет об этом наблюдательный совет с указанием причин. При этом член наблюдательного совета вправе направить свое письменное мнение по вопросам повестки дня в соответствии с настоящим Положением. |
| 8.6. Affillangan shaxs bo'lgan Kuzatuv kengashining a'zosi Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti | 8.6. Член наблюдательного совета, являющийся аффилированным лицом, обязан уведомить Общество о своей аффилированности при совершении Обществом сделки путем направления письменного уведомления с подробным указанием сведений о предполагаемой сделке, в том числе о лицах, участвующих в сделке, предмете сделки |

| | |
|---|---|
| to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko‘rsatgan holda yozma bildirgi yuborish orqali Jamiyatni xabardor etishi shart. | и существенных условиях соответствующего договора. |
| 8.7. Yuqorida aytib o'tilgan jamiyat Kuzatuv Kengashining a'zosi muhokamada ishtirok etishga haqli emas va jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas. | 8.7. Вышеуказанный член Наблюдательного совета общества не имеет права участвовать в обсуждении и не имеет права голоса при принятии решения Наблюдательным советом общества по данной сделке. |
| 8.8. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zosini jamiyat tomonidan bitim tuzishda affillangan shaxs deb tan olish "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. | 8.8. Признание члена наблюдательного совета общества аффилированным лицом при совершении обществом сделки осуществляется в соответствии с требованиями главы 9 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров». |
| 8.9. Kuzatuv kengashi a'zosi jamiyatning Kuzatuv Kengashiga biron bir bitim tuzishda yoki to'g'ridan-to'g'ri jamiyatga tegishli bo'lgan har qanday masalada (to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita yoki uchinchi shaxslar nomidan) katta qiziqish mavjudligi to'g'risida ma'lumot berishga majburdir. | 8.9. Член наблюдательного совета обязан предоставить информацию наблюдательному совету общества о наличии значительной заинтересованности (прямой, косвенной или от имени третьих лиц) в совершении какой-либо сделки или по любому вопросу, имеющему непосредственное отношение к обществу. |
| 8.10. Jamiyatning kuzatuv kengashi a’zosi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi:<br>- chalg‘ituvchi axborot yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etganlik;<br>- ushbu Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;<br>- jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o‘zlari yoki o‘z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;<br>- fuditsiar majburiyatlarni bajarmaslik. | 8.10. Член наблюдательного совета, директор или член правления общества, а также доверительный управляющий несут ответственность за убытки, причиненные обществу в результате:<br>- предоставления информации, вводящей в заблуждение, или заведомо ложной информации;<br>- нарушения порядка предоставления информации, установленного настоящим Законом;<br>- предложения к заключению и (или) принятию решений о заключении крупных сделок и (или) сделок, в совершении которых имеется заинтересованность, а также сделок с аффилированными лицами с целью получения ими либо их аффилированными лицами прибыли (дохода), повлекшего возникновение убытков общества;<br>- невыполнение фидуциарных обязательств. |
| 8.11. Jamiyat kuzatuv kengashi a’zolarining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:<br>vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko‘p aks ettiruvchi usullardan foydalanishni;<br>jamiyat mol-mulkidan jamiyatning ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va (yoki) kuzatuv kengashining | 8.11. Фидуциарные обязательства членов наблюдательного совета общества, директора общества, членов правления и доверительного управляющего включают следующие:<br>действовать добросовестно, используя наиболее соответствующие интересам общества и акционеров методы;<br>не пользоваться имуществом общества в личных интересах и не допускать такого использования в интересах других лиц вопреки |

| | |
|---|---|
| qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini koʻzlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yoʻl qoʻymaslikni;<br>jamiyatning biznes imkoniyatlaridan yoki jamiyat uchun manfaatli boʻlgan obʼektlardan oʻz vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki oʻz mavqeidan kelib chiqqan holda, jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini koʻzlab, shunday naf olishga koʻmaklashish maqsadida foydalanmaslikni;<br>jamiyatning asosiy faoliyati yoʻnalishlariga xos boʻlgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini jamiyatning tegishli boshqaruv organlari roziligisiz amalga oshirmaslikni;<br>qonunchilikka, jamiyatning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq jamiyat faoliyati toʻgʻrisidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni;<br>oʻz vazifalarini bajarish bilan bogʻliq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor boʻlgan shaxslardan mulkiy manfaatdor boʻlmaslikni. | уставу и внутренним документам общества и (или) без решений общего собрания акционеров и (или) наблюдательного совета;<br>не пользоваться бизнес-возможностями общества или объектами, представляющими интерес для общества, в связи с выполнением своих обязанностей или исходя из своего статуса в целях получению личной выгоды или оказания содействия в получении такой выгоды в интересах других лиц, без согласия на то соответствующих органов управления общества;<br>не осуществлять предпринимательскую деятельностью в области, характерной основным направлениям деятельности общества, без согласия соответствующих органов управления общества;<br>не раскрывать информацию о деятельности общества, являющуся конфиденциальной в соответствии с законодательством, внутренними документами общества и договором;<br>не получать материальных ценностей или иной имущественной выгоды от заинтересованных в этом лиц за принятие решений, связанных с исполнением своих обязанностей. |
| **IX. Kuzatuv kengashi a’zolarining javobgarligi** | **IX. Ответственность членов Наблюдательного совета** |
| 9.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining a’zolari oʻz huquqlarini amalga oshirishda va oʻz majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini koʻzlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar boʻlishi lozim. | 9.1. Члены Наблюдательного совета Общества при осуществлении своих прав и исполнении своих обязанностей должны действовать в интересах Общества и нести ответственность в установленном порядке. |
| 9.2. Agar bir nechta shaxs javobgar boʻlsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik boʻladi. Ovoz berishda ishtirok etmagan yoki jamiyatning zarar etkazishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar emas. | 9.2. Если к ответственности привлекаются несколько лиц, их ответственность перед Обществом является солидарной. Члены Наблюдательного совета, не принимавшие участия в голосовании или голосовавшие против решения, которое повлекло причинение убытков Обществу, ответственности не несут. |
| 9.3. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi boʻlib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlarning oʻrnini qoplash toʻgʻrisidagi da’vo bilan Jamiyatning Kuzatuv kengashi a’zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli. | 9.3. Общество или акционер (акционеры), владеющий в совокупности не менее чем одним процентом размещенных акций Общества, вправе обратиться в суд с иском к члену наблюдательного совета Общества о возмещении убытков, причиненных Обществу. |
| 9.4. Sud Jamiyatning kuzatuv kengashi a’zosini Jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a’zoning vakolatlari sudning qaroriga koʻra, uning xoʻjalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallashi taqiqlangan holda, bir yildan kam boʻlmagan muddatga tugatilishi mumkin. | 9.4. В случае признания судом члена наблюдательного совета Общества виновным в причинении имущественного ущерба Обществу, полномочия данного члена могут быть прекращены по решению суда на срок не менее одного года с запретом на занятие руководящих должностей в хозяйственных обществах. |

| | |
|---|---|
| 9.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi noto'g'ri ma'lumot berish yoki bila turib yolg'on ma'lumot berish yoki yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan ular yoki ularning filiallari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish taklifi natijasida jamiyatga etkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin). | 9.5. Член наблюдательного совета Общества может быть привлечен к ответственности за ущерб, причиненный Обществу в результате предоставления недостоверной информации или заведомо ложных сведений, либо в результате предложения о принятии решения о совершении крупной сделки и (или) сделки с аффилированными лицами с целью получения ими или их аффилированными лицами выгоды (дохода). |
| **X. Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi** | **X. Исполнение решений Наблюдательного совета** |
| 10.1. Jamiyat Kuzatuv Kengashining qarorlari Jamiyat ijroiya organi tomonidan tegishliligi bo'yicha bajarilishi shart. | 10.1. Решения наблюдательного совета Общества обязательны для исполнения исполнительным органом Общества по принадлежности. |
| **XI. Kuzatuv kengashi a'zolari va kotibiga haq to'lash tartibi** | **XI. Порядок оплаты труда (вознаграждения) членов и секретаря Наблюдательного совета** |
| 11.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarayotgan davrda asosiy (qat'iy belgilangan) va qo'shimcha mukofot puli (Kuzatuv kengashi qo'mitalari uchun) olishga xaqli, davlat ulushi bo'yicha Kuzatuv kengashi a'zolari bundan mustasno. | 11.1. Членам наблюдательного совета Общества в период исполнения ими своих обязанностей полагается право на получение основного (фиксированного) и дополнительного вознаграждения (за работу в комитетах наблюдательного совета), за исключением членов наблюдательного совета от доли государства. |
| 11.2. Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolariga asosiy (qat'iy belgilangan) haq Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 31 iyuldagi 464-sonli qarorida belgilangan miqdorda barcha soliqlar va majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holda chorak yakunidan keyingi bir oy ichida haq to'lanadi. | 11.2. Независимым членам наблюдательного совета основное (фиксированное) вознаграждение выплачивается в размере, установленном постановлением Кабинета Министров от 31 июля 2024 года № 464, за вычетом всех налогов и обязательных отчислений, в течение одного месяца после окончания квартала. |
| 11.3. Davlat ulushi bo'yicha tayinlangan Kuzatuv kengashi a'zolariga Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan mukofot puli tayinlanishi mumkin. | 11.3. Членам Наблюдательного совета, назначенным по государственной доле, по решению общего собрания акционеров и по согласованию с Кабинетом Министров может быть назначено вознаграждение». |
| 11.4. Jamiyatning pul mablag'lari asosiy mukofotni to'lash manbai hisoblanadi. | 11.4. Источником выплаты основного вознаграждения являются денежные средства Общества. |
| 11.5. Jamiyat faoliyatining zararsizligi Kuzatuv kengashiga haq to'lashning majburiy sharti hisoblanadi. | 11.5. Безубыточность деятельности Общества является обязательным условием выплаты вознаграждения Наблюдательному совету. |
| 11.6. Qat'iy belgilangan to'lov Kuzatuv kengash mustaqil a'zolariga ular tomonidan mazkur Nizomda nazarda tutilgan fuknsional vazifalar lozim darajada bajarilganligi uchun to'lanadi. | 11.6. Фиксированная выплата выплачивается независимым членам Наблюдательного совета за надлежащее исполнение ими функциональных обязанностей, предусмотренных настоящим Положением. |

| | |
|---|---|
| 11.7. Kuzatuv kengashi a'zosi o'tgan chorakda Kuzatuv kengashi majlislarining yarmidan ko'pida ishtirok etmagan yoki unga yuklangan vazifalar va Kuzatuv kengashining ayrim topshiriqlari qoniqarsiz bajarilgan hollarda Kuzatuv kengashi a'zosining qat'iy belgilangan mukofot miqdori kamaytirilishi mumkin. | 11.7. В случаях, когда член Наблюдательного совета не принимал участия более чем в половине заседаний Наблюдательного совета за прошедший квартал, либо при неудовлетворительном выполнении возложенных на него обязанностей и отдельных поручений Наблюдательного совета, размер фиксированного вознаграждения члена Наблюдательного совета может быть уменьшен. |
| 11.8. Kuzatuv kengashi kotibiga har chorakda O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 7 barobarida haq to'lanadi. | 11.8. Секретарю Наблюдательного совета ежеквартально выплачивается вознаграждение в 7-кратном размере минимальной заработной платы (МРОТ), установленной в Республике Узбекистан. |
| **XII. Yakunlovchi qoidalar** | **XII. Заключительные положения** |
| 12.1. Mazkur Nizom Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan sanadan e'tiboran kuchga kiradi. | 12.1. Настоящее Положение вступает в силу с даты его утверждения общим собранием акционеров Общества. |
| 12.2. Agar mazkur Nizomni biron-bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi. | 12.2. Если какое-либо положение настоящего Положения утратит свою силу, это не является основанием для приостановления действия других его положений. |
| 12.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoxud Jamiyat ustavida mazkur nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyat ustavi qoidalari qo'llaniladi. | 12.3. В случае если законодательством Республики Узбекистан либо Уставом Общества установлены иные правила, чем те, что предусмотрены настоящим Положением, применяются нормы действующего законодательства Республики Узбекистан и положения Устава Общества. |
| 12.4. Ushbu Nizom aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab "Navoiyazot" AJ Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi avval tasdiqlangan Nizom (2024-yil 27-dekabrda yagona aksiyadorning 70-sonli qarori bilan tasdiqlangan) o'z kuchini yo'qotadi. | 12.4. Со дня утверждения настоящего Положения общим собранием акционеров признается утратившим силу ранее утвержденное Положение о Наблюдательном совете АО „Navoiyazot" (утвержденное решением единственного акционера от 27 декабря 2024 года № 70). |

**"Navoiyazot" AJ boshqaruv raisi v.b.** **И.о. председателя правления**

**F.X. Samadov**